

Ogahiyning davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti

Fors-ingliz guruhi 2- bosqich talabasi

Mustafoyeva Mushtariy Zohid qizi

Annotatsiya: Oz davrining mashhur adiblaridan Xorazm diyorining serqirra istedod sohibi Muhammad Rizo Ogahiydur. Ogahiyning davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati ancha qiyinchilik bilan o'tgan. Hayot qiyinchiliklari uning ijodiy faoliyatiga ta'sir qilmagani va bir kun ham ijoddan to'xtamagni e'tiborga loyiqdir. Ogahiy ijodi juda keng qamrovli bo'lib, hattoki, u ijtimoiy fanlar rivoji va taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha olganligi tahsinga sazovordir. Ushbu maqolada uning boy merosi va davlat ishlaridagi faoliyati yoritib ketilgan.

Kalit so'zlar: Firdavs ul-iqbol, Alisher Navoiy, siyosatchi va tarixchi, tarjimon va tarixnavis, ilmiy faoliyat, miroblik, saroy tarixchisi

Xorazmning ulug' shoir-u olimlaridan gap ketganda serqirra iste'dod sohibi Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning muborak nomi albatta, tilga olinib, she'riyat, tarjima, tarixnavislik jabhasidagi faoliyati faxr bilan e'tirof etiladi. Uning she'riy, tarixiy va tarjima asarlariga murojaat qilmagan shaxs bo'lmasa kerak. Ogahiy har qanday baland e'tibor va ehtiromga loyiq san'atkor. Uning ijodiyotiga bir bog'lansa qaytib ajralib bo'lmaydigan daholardan ekanligiga guvoh bo'ldim. Uning barcha asarlari mahorat bilan yozilgan Tarix ilmidagi tarjimalari tahsinga sazovordir.⁴ She'riyati yuraklarga hayajon soladigan darajada yoqimli va ta'sirchandır. U ijodining ko'lami, she'riyatining ko'rkamligi va badiiy salmog'i bilan Navoiydan keyingi o'rinda turuvchi sermahsul va serqirra shoir hisoblanadi. Ayni paytda, xalqimiz o'tmishini haqqoniy aks ettirgan bir necha nodir asarlari bilan tarix ilmi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan olim sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, uning juda ko'plab tarixiy va badiiy asarlarni

⁴ Ibrohim Haqqul Ogahiy shaxsiyati xususida

fors tilidan ona tilimizga o'girib, ularni xalqimizning ma'naviy merosiga aylantirishdagi xizmatlari tahsinga sazovordir Shoir amakisi Munis vafotidan so'ng uning davlat faoliyatidagi ishlari boshlandi. Olloqulixon Munisning vafot etishi bilanoq, Ogahiy ni mirob (suv ishlari boshqaruvchisi) etib tayinladi. Suv tanqis bo'lgan zamonda Xorazm diyorida miroblik nihoyatda ma'suliyatli vazifa bo'lib, uni ishonchli va halol odam boshqarishi lozim edi. U davlat ishlari bilan mashg'ul bo'lar ekan, badiiy ijod hamda ilmiy faoliyatini to'xtatmadi. Saroy tarixchisi vazifasini ham olib borayotgan Ogahiy Munis boshlab qo'ygan " Firdavs ul-iqbol " asarini davom ettiradi. Tinib- tinchimas shoir, davlat arbobi, siyosatchi va tarixchi Ogahiy kutilmaganda og'ir musibatli davrni boshdan kechirdi. Shu yili miroblik ishlari bilan safarda yurganda tasodif tufayli oyog'i qattiq shikastlanadi va hali yigit yoshidanoq to'shakka bog'lanib qoladi. Shu dard azobini tortayotgan shoir umr yo'ldoshidan ham ajraladi. Keyin esa miroblikdan iste'foga chiqib, hayot zarbalarini qarshi oldi. Lekin bu musibatlar oldida u chekinmadi. Kuchli iroda, hayotni sevishi Ogahiy ni ijodga undadi. Shu qiyinchiliklar ustiga umr yo'ldoshidan ham ajradi. Lekin, bu dardlar uning qaddini buka olmadi. She'rga adabiyotga muhabbat uni izlanishga ijodga undadi.⁵ Ogahiy ijodiga Navoiyning ta'siri katta. U o'zining bu buyuk salafidan bir umr o'rgandi, undan ta'sirlandi, unga ergashdi, g'azallariga tatabbu'lar yozdi, muxammaslar bog'ladi. Qiyinchiliklar og'ir paytlarda, moddiy jihatdan qiynalganligi sababli, shoh-u amaldorlar uni moddiy jihatdan qo'llab quvvatlab turgan bo'lsalar-da, ularning bu yordamlari "sababi tirikchilik " tarzida bo'lgan. U o'zining qasidalaridan birida mana bunday degan:

Agarchi iltifotidin erur vaqtim bag'oyat xush

Va lekin bog' ila yer yo'qlig'i ko'nglumda armondur

Ajablanarli jihati shundaki, bir umr miroblik qilgan kishining o'zida sug'orish uchun bir kulcha yer bo'lmasa

Yer yuzida, Ogahiy , chun yo'q sango bir kulcha yer

⁵ Adabiyot darsligi Toshkent Ozbekiston NMIU 2019

Barcha umringda ne hosil aylasang miroblig⁶

Hayot Ogahiy boshiga ne kunlarni solmadi, lekin, bu qiyinchiliklarni mtonatli yenga oldi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, dunyoda san'atkor shoir ko'p lekin o'tgan lekin mutafakkir adib hamisha sanoqli bo'lgan. Uning matonati, sabri hayot zarbalaridan yengilmasdan olg'a qadam tashlashi biz Ogahiyshunoslar uchun albatta qo'llanma va yo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Uning hayotga bo'lgan muhabbati, uning ijodini o'rganishim davomida meni juda ta'sirlantirdi. Bir qo'lda qalam tutib, bir qo'lda umr qiyinchiliklariga dosh beraolish bir insonning matonati tahsinga sazovordir. Shunchalik olijanob shoirki, hatto shoh- amaldorlar uni e'zozlashgan hatto qiyin damlarida yelkadosh bo'lgan. Faqat ilm-u ijodni o'ziga kasb qilgan adib mol-u davlat to'plashga ham berilmagan faqatgina u dunyoning boyligi uchun harakat qilgan. Keyingi izlanishlarim ijodkorning tarjima asarlariga qaratiladi. Uning tarjimalaridagi e'tiborli tomonlarni yoritishga harakat qilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati :

1. Ibrohim Haqqul Ogahiy shaxsiyati xususda nomli maqolasi
2. Adabiyot darsligi Toshkent "O'zbekiston " NMIU 2019
3. Jamoling jilvasi Toshkent " O'zbekiston "2016

⁶ Jamoling jilvasi Toshkent Ozbekiston 2016